

## JENMIN JIBAONING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (1948-2012 YILLAR)

**O'ktamova Nazokat**

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Oliy  
jurnalistika kurslari 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Jenmin jibaoning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi, gazetaning vazifasi, faoliyati, gazetadagi o'zgarishlar va o'ziga xos jihatlari turli yillarga ajratilib o'rganiladi. Matbuotning tarixiy taraqqiyot omillarini yoritish maqsadida birgina manba bilan cheklanib qolmasdan ko'plab birlamchi manbalardan foydalanilib, Jenmin jibaoga asos solingandan to 2012-yilgacha bo'lgan jarayon, erishilgan yutuqlar va isloxotlar statistik ma'lumotlar bilan asoslanadi. Maqola yakunida tiklangan ma'lumotlardan tizimlashtirilgan, yaxlit xulosa chiqariladi.*

**Kalit so'zlar:** *Xitoy matbuoti, Jenmin jibao, Weibo, Wechat, partiya, online, fotosurat, maqola.*

**Abstract:** *In this article, the history of the emergence and development of People's Daily, the newspaper's mission, activities, changes and unique aspects of the newspaper are studied by dividing them into different years. In order to shed light on the historical development factors of the press, many primary sources are used, not limited to one source, and the process, achievements and reforms from the founding of People's Daily to 2012 are based on statistical data. At the end of the article, a systematic, comprehensive conclusion is drawn from the recovered information.*

**Keywords:** *Chinese press, People's Daily, Weibo, WeChat, party, online, photo, article.*

“Jenmin jibao” tarixi 1948-yilda Xitoy Kommunistik partiyasi Xebey provinsiyasining Pingshan okrugida Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasi organi sifatida gazetaga asos solgan paytdan boshlanadi.

1949-yilda Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topgandan so'ng partiya va hukumat darhol sotsialistik xususiyatga ega bo'lgan ko'plab ommaviy axborot vositalarini tuzdi. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik va boshqa vositalar orqali xususiy axborot tashkilotlari o'zgartirildi. Jurnalistlardan yangi davrning yangi davri xususiyatlari, yangi talablariga moslashish uchun o'z axborot ishlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish talab qilinish, 1956-yilda “Jenmin jibao”ni qayta ko'rib chiqish asosida jurnalistikani isloh qilish harakatini boshlab yubordi. Yangi Xitoy tashkil etilishining boshida partiya va xalq hukumati Pekinda markazlashgan va butun mamlakat bo'ylab tarqaladigan ommaviy jurnalistika tarmog'ini yaratdi. “Jenmin jibao” ommaviy gazetalar tarmog'ining markazi etib belgilandi.

Xitoy Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining gazetasi “Jenmin jibao” Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topganidan so'ng qisqa vaqt ichida mamlakatdagi eng yirik gazetaga aylandi va xorijda ham tarqaldi. Gazeta dastlab olti sahifali (ba'zan sakkiz

bet) bo'lib, 1951-yilda to'rt sahifaga o'zgartirildi va 1956-yilda sakkiz sahifaga kengaytirildi. 1955-yil yanvar oyidan boshlab gazeta Shanxay, Uxan, Sian, Guanjou, Chengdu, Kunmin, Xarbin, Urumchi, Nanchang shaharlarida ham nashr etila boshlandi. Gazetaning tiraji 1949-yilda 90 ming nusxadan ortiq bo'lsa, 1950-yilda 170 ming nusxaga yetdi. 1955-yilda 710 000 nusxadan 1956-yilda deyarli 900 000 nusxaga yetdi<sup>20</sup>. Gazetaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat edi: Xitoyda va xorijdagi muhim dolzarb voqealar, muhim mafkuraviy-siyosiy masalalar yuzasidan hisobot va sharhlar berish, markazning ahvoli va faoliyati bilan butun mamlakat va poytaxtni tanishtirish, tajriba almashish, turli g'oyaviy va ish masalalarini muhokama qilish, adabiy-badiiy asarlarni nashr etish va adabiy-badiiy asarlar bilan tanishtirish, kitobxonlar bilan savol-javobxatlari tashkil qilish.

1956-yildan keyin Xitoyda jurnalistikani isloh qilish jarayoni boshlandi. 1956-yil aprel oyidan keyin "Jenmin jibao" gazetasida sahifani qayta ko'rib chiqishga qaratilgan jurnalistikani isloh qilish harakati paydo bo'ldi. Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasi, shuningdek, "Jenmin jibao" gazetasining mazmunini yaxshilash va nashrning hajmini kengaytirishni buyurdi. Gazeta tekshiruvlar o'tkazish uchun barcha xodimlarni safarbar etdi, viloyat va shahar qo'mitalari, tegishli markaziy bo'limlar, tuman darajasidagi yoki undan yuqori gazeta tahririyatlari va jamiyatning barcha qatlamlari o'quvchilaridan individual suhbatlar o'tkazish uchun maxsus xodimlarni jo'natib, o'quvchilarning fikr-mulohazalari va takliflarini oldi. Gazeta tashkil etilganidan buyon sakkiz yil davomida erishilgan yutuqlarni qayd etar ekan, "Jenmin jibao" faoliyatida hamon kamchiliklar ko'pligi, unda dogmatizm va jiddiy qoliplashgan partiya yozuvi kabi kamchiliklar saqlanib qolayotgani, jonli uslubga ega emasligini ham ochiq tan oldi va xalqning tanqid va takliflariga doim ochiq ekanligini bildirdi. Shundan so'ng "Jenmin jibao" gazetasining hajmi 4 sahifadan 8 sahifaga o'zgartirildi, nashriyot ham shunga mos ravishda o'zgartirildi. Gazetaning 1-sahifa yangiliklar sahifasi, 2 va 3-sahifalari esa ichki iqtisodiy sahifalardir, 4-sahifa ichki siyosiy masalalar sahifasi, 5 va 6-sahifalar xalqaro yangiliklar sahifa, 7-sahifa akademik va madaniy sahifa, 8-sahifaning yuqori va pastki qismlari mos ravishda qo'shimchalar va reklama sahifalaridir<sup>21</sup>. Eng katta o'zgarishlar yangiliklarni yoritishda aks ettirilgan. Islohotdan avval gazetada kam miqdorda diplomatiya, uchrashuvlar va e'lonlar kabi yangiliklar yoritilgan bo'lsa, islohotdan so'ng gazeta yangiliklari miqdori sezilarli darajada oshdi.

Qayta ko'rib chiqishdan keyingi birinchi oyda "Jenmin jibao" har kuni o'rtacha 74 ta yangilik nashr etdi. Iqtisodiy qurilish holatiga moslashish uchun iqtisodiy yangiliklar asosiy o'rinni egallaydi. 1956-yil iyul va avgust oylaridagi "Jenmin jibao" gazetasining birinchi sahifasidagi sarlavhalarni misol qilib olsak, jami 61 sarlavha, jumladan, 31 tasi iqtisodiy qurilishga, 5 tasi madaniyat va maorifga, 5 tasi xalq hayotiga, 6 tasi siyosiy yangiliklariga va 14 tasi chet elga tegishli yangiliklardir. Shubhasiz, iqtisodiy qurilish yangiliklari 50% ni tashkil qiladi va barcha turdagi yangiliklar orasida birinchi o'rinda

<sup>20</sup> 方汉奇. 中国新闻传播史. - 北: 中国人民大学出版社, 2012. - 第243-244 页.

<sup>21</sup> 方汉奇. 中国新闻传播史. - 北: 中国人民大学出版社, 2012. - 第263-265 页.

turadi<sup>22</sup>. Yangilik xabarlarining mavzusi kengayib, ijtimoiy hayotdagi yangiliklarni yoritish, hayotdagi muammolarni o'rganish va hal qilish, o'quvchilar hayotiga ko'proq yaqin bo'lishni targ'ib qila boshladi. Tahrirdan keyingi birinchi oyda "Jenmin jibao" har kuni o'quvchilarning o'rtacha 10 ga yaqin xatini chop etdi. "Jenmin jibao" faoliyati qayta ko'rib chiqilgach o'quvchilar tomonidan yaxshi qarshi olindi. "Jenmin jibao" yangiliklar, nutqlar va rasmlarni uzviy birlashtirib, vaqti-vaqti bilan turli xil hisobot shakllarini, jumladan, birlashtirilgan yangiliklarni ishga tushirdi. Ayniqsa, fotosuratlardan foydalanish yoki rasmi yangiliklarni byulleten holatida chop etish yoki katta fotosuratni ikkita kichik fotosuratga o'zgartirish yoki maqoladagi rasmlarni moslashuvchan tarzda birlashtirish odamlarda qiziqishni oshirdi. Xitoy jurnalistikasining 1956-yilda paydo bo'lgan islohoti, ya'ni "Jenmin jibao" gazetasining namunasi sifatida, Yangi Xitoy tashkil topganidan beri jurnalistika olamidagi muhim voqea bo'ldi. Bir yildan ortiq davom etgan bu islohot Xitoy voqeligidan kelib chiqib, xalq ehtiyojini qondirishga qaratilgan bo'lib, mamlakatda sotsialistik jurnalistikaning muvaffaqiyatli rivojlanishiga yo'l ochdi, uning ahamiyati va ta'siri juda keng edi. Avvalo, aksariyat jurnalistlarning yangiliklar tushunchalari yangilandi va erkinlashtirildi.

Uch yillik (1959-1961) iqtisodiy qiyinchilik davrida qog'oz ta'minoti yetishmovchiligi sababli Markaziy hukumat gazetalar uchun ishlatiladigan qog'ozni qisqartirish to'g'risida ko'rsatma bergan va gazetalar hajmini ham qisqargan. 1960-yilda qog'oz yetishmasligi tufayli butun mamlakat bo'ylab barcha fan va texnologiya gazetolari nashr etilishini to'xtatildi. 1961-yil noyabr oyidan boshlab "Jenmin jibao" sahifalari 8 sahifadan 6 sahifaga qisqartirildi, dushanba kunlari bor-yo'g'i 4 sahifa nashr etilar edi, tiraj esa 1,33 million nusxadan 1 million nusxaga qisqardi<sup>23</sup>.

Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topgan dastlabki kunlarda mamlakatdagi gazetalarda yangilik fotosuratlari juda kam edi. 1950-yillarning oxiriga kelib gazetalarda ko'proq yangilik suratlari paydo bo'ldi. Masalan, 1950-yillarning boshlarida "Jenmin jibao" gazetasida o'rtacha 3 sahifada bor-yo'g'i ikkita surat bo'lgan, sahifalarning 74 foizida esa hech qanday surat bo'lmagan. Fotosuratlar chop etilgan taqdirda ham ular juda kichik hajmda bo'lgan. 1950-yillarning oxirlarida "Jenmin jibao" sahifalarida suratlari soni ko'payib, kattalashib bordi. Partiya qurultoyining ochilishi va yopilishi kabi umumxalq tadbirlarida ko'pincha balandligi 30 satr bo'lgan katta-katta suratlari chop etilardi. Birinchi sahifada odatda kamida bitta, ba'zan esa uchta yoki to'rtta fotosurat mavjud bo'lgan. 1958-1959 yillarda Xitoyda "Katta sakrash" harakatining rivojlanishi bilan gazetalarda suratlari soni keskin ko'paydi.

1985-yil 1-iyulda "Jenmin jibao" ning xorijdagi nashri tashkil topdi<sup>24</sup>. 1992-yil "Jenmin jibao" milliy gazeta sanoatida sun'iy yo'ldosh sahifalarini raqamli uzatish tizimini yaratishda yetakchilik qildi, bu butun mamlakat bo'ylab 43 ta bosmaxonada

<sup>22</sup> 方汉奇. 中国新闻事业通史. - 北: 中国人民大学出版社, 1999. - 第 254-255 页.

<sup>23</sup> 方汉奇. 中国新闻传播史. - 北: 中国人民大学出版社, 2012. - 第271 页.

<sup>24</sup> [https://baike.baidu.com/reference/640119/533aYdO6cr3\\_z3kATKCMn6n3NS3HMD6s7-aGA-ZzzqIPmGpB5nyTcY07cct\\_blgGx2Fs5YtY9Nale2\\_UVQWtqkPMqRnFqpo1Cu7THfEWbng-dAvwpUZ](https://baike.baidu.com/reference/640119/533aYdO6cr3_z3kATKCMn6n3NS3HMD6s7-aGA-ZzzqIPmGpB5nyTcY07cct_blgGx2Fs5YtY9Nale2_UVQWtqkPMqRnFqpo1Cu7THfEWbng-dAvwpUZ)

bir vaqtning o'zida "Jenmin jibao" gazetasini chop etish va tarqatish imkonini berdi<sup>25</sup>, "Jenmin jibao" Xitoyning eng yirik gazetasi bo'lib, 1992-yilda YuNESKO tomonidan dunyoning eng yaxshi o'nta gazetasi qatoriga kiritilgani uning gazeta yuritishdagi faoliyati qanchalik to'g'ri ekanining isbotidir. 1997-yil 1-yanvarda "Jenmin jibao" ning onlayn versiyasi rasman internetga kirdi. 1999-yil oxiriga kelib Xitoyda onlayn xitoy gazetalari soni 700 taga yetdi. Mustaqil domen nomlariga ega onlayn xitoy gazetalari xitoy gazetalari umumiy sonining 42,6%ni tashkil etadi, 100 dan ortiq radio va telestansiyalar internetga kirish imkoniga ega bo'ldi.

2008-yil media gigantiga aylangan Internet uchun favqulodda yil bo'ldi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, "Online Jenmin jibao", "Sinhuanet" va "CCTV International" ning uchta yirik yangiliklar veb-saytlari hamda Sina, Sohu, NetEase va Tencentning to'rtta yirik tijorat portallari har kuni jami 20 000 dan ortiq yangiliklarni yangilaydi va o'rtacha kunlik yangiliklarni ko'rish 2 milliard martadan oshadi.

2009-yil fevral oyidan boshlab Weiboning ko'plab veb-saytlari birin-ketin ishga tushdi va foydalanuvchilar soni keskin ko'paydi. Weibo mamlakat internet taraqqiyotida yangi qaynoq nuqtaga aylandi. Odamlarning 73% dan ortig'i Weibni muhim yangiliklar manbai deb biladi. Weibo ommaviy axborot vositalari uchun tezkor yangiliklarni kuzatish uchun muhim manbalardan biriga aylandi. 2012-yil 21-iyul kuni Pekinda "Jenmin jibao" Weiboda o'z akkauntini ochdi. "Jenmin jibao" ning dastlabki ikki oyda kuniga o'rtacha obunachilar soni 24000 ga oshdi, bir kunda 10463 ta fikr bildirildi va o'rtacha 31 056 marta tarqatildi.

2012-yil 8-noyabr Xitoy Kommunistik partiyasining 18-Umummilliy qurultoyining ochilishi munosabati bilan Sina Weiboda "Jenmin jibao" obunachilari soni 2,8 milliondan oshdi. 64 yoshli "Jenmin jibao"ning o'sha paytdagi tiraji ham 2,8 milliontani tashkil etgan edi. Weibo 4 oydan kamroq vaqt ichida 2,8 million auditoriyani to'pladi, bu Weiboda yana bir "Jenmin jibao" ni yuritishga teng. 2013-yil mart oyiga kelib, "Jenmin jibao" ning Weibodagi "muxlislari" soni 10,58 millionga yetdi va Xitoyning o'n million kuzatuvchiga ega birinchi Weibo media akkaunti bo'ldi<sup>26</sup>. Hozirda Weibodagi aktiv foydalanuvchilar soni 605 millionni tashkil etadi, bu 2022-yil holatiga qaraganda 11 millionga ko'p ko'rsatkichdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xitoy Xalq Respublikasiga asos solingach Jenmin jibaoda juda ko'plab tarixiy va zamonaviy o'zgarishlar bo'ldi va bu gazetaning rivojlanishida katta asos hisoblanadi. Jenmin jibaoning tarixiga nazar tashlasak, gazetaning yangiliklarga va rivojlanishga qanchalik ochiqligi, doim yangilanishda ilg'or ekanligini ko'ramiz. Internet asriga qadam qo'ygach, gazetaning online platformalarda shaxsiy saytini yuritishni darhol boshlagani, Weibo va Wechatda ham oldingi o'rinda ekani, o'zining mobil ilovalarini hamishlab chiqqani gazetaning zamonaviy tendensiyalarini va mijozlar uchun yaratilgan qulaylikni namoyon etadi.

<sup>25</sup> [https://baike.baidu.com/reference/640119/533aYdO6cr3\\_z3kATKCMn6n3NS3HMD6s7-aGA-ZzzqIPmGapB5nyTcY07cct\\_blgGx2Fs5YtY9Nale2\\_UVQWtqkPMqRnEqpo1Cu7THfEwbng-dAvwpUZ](https://baike.baidu.com/reference/640119/533aYdO6cr3_z3kATKCMn6n3NS3HMD6s7-aGA-ZzzqIPmGapB5nyTcY07cct_blgGx2Fs5YtY9Nale2_UVQWtqkPMqRnEqpo1Cu7THfEwbng-dAvwpUZ)

<sup>26</sup> 方汉奇. 中国新闻传播史. - 北: 中国人民大学出版社, 2012. - 第374-375 页

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. 方汉奇. 中国新闻传播史. - 北: 中国人民大学出版社, 2012. - 410页.
2. 文家林. 中国新闻事业史. - 湖北: 武汉大学出版社, 2011. - 464页.
3. 方汉奇. 中国新闻事业通史. - 北: 中国人民大学出版社, 1999. - 3568 页.
4. 徐松. 宋会要辑稿. - 北京: 中国人民大学出版社, 2002. - 366 页。
5. 顾炎武. 亭林文集, 第3卷第15页, 见戈公振《中国报学史》. - 香港: 中国新闻出版社, 1985. - 320 页。
6. 周询. 蜀海丛谈, 卷二“奏折”, 见程丽红《清代报人研究》. - 北京: 社会科学文献出版社, 2008. - 266页。
7. 梁启超. 戊戌政变记. - 上海: 中华书局, 1954. - 470页。